



INKLYUZIV TA'LIM INKLYUZIV JAMIYAT SARI YO'L Ashirova Sevinch G'ayratovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti

1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17544045>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-noyabr 2025 yil

Ma'qullandi: 3-noyabr 2025 yil

Nashr qilindi: 6-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

inklyuziv ta'lim, inklyuziv jamiyat, teng imkoniyatlar

ABSTRACT

Hozirgi globallashuv davrida barcha insonlarga teng imkoniyatlar yaratish va ularni qo'llab-quvvatlash eng muhim vazifalardan biridir. Ushbu maqolada inklyuziv ta'limi va uning asosiy xususiyatlari, boshqa ta'lim tizimidan farqlari jihatlari hamda barcha insonlarga teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lgan jamiyatni shakllantirishdagi o'rni yoritiladi.

Kirish. Inklyuziv ta'lim atamasi "shu jumladan" yoki "birlashtiruvchi" degan ma'noni anglatadi. Bunda barcha o'quvchilar bir xil maktab va sinfxonalarida tahsil olishadi. Ya'ni jismoniy va aqliy imkoniyati jihatdan teng bo'lmagan bolalar bilan sog'lom bo'lgan bolalar birga tahsil olishadi. Bu ta'lim tizimida maxsus ehtiyojli bolalarni, jumladan nogiron bolalarni umumta'lim maktablariga integratsiya qilinadi va ta'lim tizimini ularning ehtiyojlariga mos ravishda o'zgartiriladi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi – har bir bolaning yoshi, jisni, irqi, aqliy va jismoniy qobilyatidan qat'iy nazar, teng va sifatli ta'lim olishi huquqini ta'minlashdan iborat.

Ushbu ta'lim tizimining an'anaviy va integratsiyalashgan ta'limdan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi :

Hammaga umumiy darslik o'tilmaydi aksincha darslar har bir bolaning ehtiyojidan kelib chiqib o'tiladi;

O'quvchilar alohida sinflarga bo'linmaydi ya'ni ular ajratilmaydi ;

O'qituvchilar odatdagidek hammaga bir xil uslubda dars o'tishmaydi balki har bir bolaga individual yondashuv asosida ta'lim beradi.

Shunday qilib, inklyuziv ta'limda bolalar o'quv tizimiga emas, o'quv tizimi bolalarga moslashtiriladi.

Tadqiqot natijalari

Inklyuziv ta'lim tizimi - yangi davrning barcha uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy mexanizmdir. Ushbu tizimning huquqiy asoslari nafaqat umumtan olgan hujjatlarda balki ichki qonunchilik hujjatlarida ham o'z aksini topgan.

Birlashgan millatlar tashkilotining 2006-yil qabul qilingan " Nogironlarning huquqlari to'g'risidagi" konvensiyaning

7-modda Nogiron bolalar

1. Ishtirok etuvchi davlatlar nogiron bolalarning barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklarini boshqa bolalar bilan teng ravishda to'la amalga oshirilishini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi.
2. Nogiron bolalarga nisbatan barcha sa'y-harakatlarda bolaning oliy manfaatlariga birinchi darajali e'tibor qaratiladi.
3. Ishtirok etuvchi davlatlar nogiron bolalar yoshlariga va yetukligiga muvofiq bo'lgan zarur salmoq oladigan o'z qarashlarini boshqa bolalar bilan teng ravishda erkin ifoda etish huquqiga ega bo'lishlarini hamda ushbu huquqlarni amalga oshirish uchun nogironliklari va yoshiga mos bo'lgan yordamni olishlarini ta'minlaydi.

24-modda Ta'lim

Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning ta'lim olish huquqini e'tirof etadi. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqni kamsitmasdan va imkoniyatlar tengligi asosida amalga oshirish maqsadlarida barcha darajalarda inklyuziv ta'limni va butun umri davomida o'qitilishlarini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasini ushbu konvensiyani 2009-yil ratifikatsiya qilgan hamda undagi majburiyatlarni bajarishni o'z zimmasiga olgan. 2023-yil qabul qilingan yangi konstitutsiyaning 50-moddasida "Ta'lim tashkilotlarida alohida ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi. "

Bu norma orqali har bir bolaning uning ehtiyojlari va individual imkoniyatlari xilma- xilligidan qat'iy nazar teng va sifatli ta'lim olish huquqi konstitutsiyaviy kafolat darajasiga ko'tarilgan. Ushbu normaning amaldagi ifodasini nogironligi bo'lgan yoshlarga yaratilgan imkoniyatlarda bilib olsak bo'ladi. Jumladan, maktabgacha ta'lim muassasidan tortib oliy ta'lim o'quv yurtlarida ular uchun maxsus sharoitlar tashkil etilgan. Bulardan; qo'shimcha kvotalar asosida ta'lim muassalariga kirish va davlat granti sohibi bo'lib ta'lim olish.

Xulosa

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimi bosqichma-bosqich rivojlanmoqd. Ammo bu jarayonda hali nogironligi bo'lgan bolalar uchun ta'lim dasturlari, o'quv qurollari va o'quv anjomlari hamda mutaxassis ustozlar yetishmovchiligi kuzatiladi. Inklyuziv ta'limning joriy etilish - nogironligi bo'lgan bolalarning jamiyatga tezroq va osonroq integratsiya qilinishiga, shuningdek maxsus ehtiyojli va sog'lom bolalarning bir-birini tushunishi va bag'rikenlik xislatlari shakllanadi. Chunki jamiyatning boshlanish nuqtasi ya'ni ta'lim sohasida nogironligi bo'lgan bolalar va sog'lom bolalar birga tahsil olishsa, ular kelajakda ham bir jamiyatda birgalikda va inoq yashay oladilar.